

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

GULXANIYNING «ZARBULMASAL» ASARI LEKSIKASIDAGI ONOMASTIK BIRLIKLAR TAHLILI

Ubaydullayeva Shoiraxon Axrorovna

Zomin tumani 46-son umumta'lim maktabi, o'qituvchi.

e-mail: ubaydullayevash@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-5331-5910>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada XVIII–XIX asr o'zbek mumtoz adabiyoti namunasi bo'lgan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari leksikasidagi onomastik birliklar, xususan antroponimlar tasnifiy-semantik jihatdan tahlil qilingan. Asarda qo'llangan 32 antroponim genetik va semantik guruhlariga ajratilib, ularning badiiy matndagi vazifasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: onomastika, antroponimika, antroponim, zoonim, nomshunoslik, leksema, “Zarbulmasal”, Gulxaniy, mumtoz adabiyot.

АНАЛИЗ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ЛЕКСИКЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ГУЛЬХАНИ «ЗАРБУЛМАСАЛ»

Убайдуллаева Шоирахон Ахроровна

Средняя общеобразовательная школа № 46 Зааминского района, преподаватель,

Аннотация.

В данной статье анализируются ономастические единицы, в частности антропонимы, в лексике произведения «Зарбулмасал» Гулхани — образца узбекской классической литературы XVIII–XIX веков. 32 антропонима, использованных в произведении, распределены по генетическим и семантическим группам, раскрыта их художественная функция.

Ключевые слова: ономастика, антропонимика, антропоним, зооним, номология, лексема, «Зарбулмасал», Гулхани, классическая литература

AN ANALYSIS OF ONOMASTIC UNITS IN THE LEXICON OF GULKHANI'S ZARBULMASAL

Ubaydullayeva Shoiraxon Axrorovna

Secondary School No. 46, Zomin District, Teacher.

Abstract.

This article analyzes the onomastic units, particularly anthroponyms, in the lexicon of Gulkhaniy's “Zarbulmasal”, a work of 18th–19th century Uzbek classical literature. The 32 anthroponyms used in the work are classified into genetic and semantic groups, and their artistic function is revealed.

Keywords: onomastics, anthroponymics, anthroponym, zoonym, onomatology, lexeme, “Zarbulmasal”, Gulkhaniy, classical literature

Kirish. Onomastika, ya'ni atoqli otlar tizimini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi so'nggi o'n yilliklarda o'zbek tilshunosligida jadal rivojlanib bormoqda. Badiiy asar tili, xususan, uning onomastik qatlami muallifning individual uslubini, davr ruhini va milliy-madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Atoqli otlar — antroponimlar, zoonimlar, toponimlar — badiiy matnda nafaqat nominativ, balki uslubiy-ekspressiv, timsoliy va ijtimoiy-tanqidiy vazifalarni ham bajaradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida ijod qilgan o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, taxallusi “gulxan” (o'choq, hammom o'tinxonasi) so'zidan olingan Gulxaniy (asl ismi Muhammad Sharif) ijodi, xususan, uning nasriy-hajviy asari “Zarbulmasal” (“Yapaloqqush hikoyasi” nomi bilan ham mashhur) tilshunoslik nuqtayi nazaridan, ayniqsa, onomastik jihatdan hali yetarlicha monografik tadqiq etilmagan. Asar qushlar obrazi vositasida turli ijtimoiy qatlamlarning illatlarini hajviy tarzda fosh etuvchi, mazmun jihatidan “Kalila va Dimna”, Sa'diy Sheroziyning “Guliston”i kabi Sharq adabiyotidagi zarbulmasal janri an'alariga hamohang asar sifatida ham qimmatlidir.

Tadqiqotning maqsadi — Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari leksikasidagi onomastik birliklarni, birinchi navbatda, antroponimlarni aniqlash, ularni genetik-etimologik va leksik-semantik jihatdan tasniflash hamda ularning badiiy matndagi vazifasini yoritishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: 1) onomastika fanining nazariy asoslarini, xususan, antroponimika tushunchasini yoritish; 2) asar matnidagi onomastik birliklarni to'plash va ro'yxatga olish; 3) ularni kelib chiqishi (arabcha, forsa-tojikcha, turkiycha, yahudiycha) va semantik xususiyati (tarixiy-diniy, afsonaviy, badiiy-to'qima) bo'yicha guruhlash; 4) natijalarni statistik va sifat jihatidan tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti — Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari matni, predmeti esa ushbu matndagi onomastik birliklar,

birinchi galda, antroponimlar tizimidir. Ishda tavsifiy, tasnifiy (klassifikatsion), komponent tahlil hamda qisman statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Maqolaning tuzilishi quyidagicha: birinchi bo'limda onomastika va antroponimika sohasining umumnazariy masalalari, jumladan, atoqli otlarning turlari yoritiladi; ikkinchi bo'limda "Zarbulmasal" asaridan yig'ilgan antroponimlar tasnifi va ularning zoonimik-ornitonimik qatlam bilan aloqasi tahlil qilinadi; muhokama qismida olingan natijalar adabiy-tarixiy kontekstda izohlanadi; natijalar va xulosa qismlarida esa tadqiqotning yakuniy ilmiy-amaliy natijalari umumlashtiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

1. Onomastikaning nazariy asoslari

Onomastika [yunoncha onoma — ism, onomastikos — ismga bog'liq] nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan bog'liq so'zlar yig'indisi sanaladi. Tilshunoslikda atoqli otlarni va ularning barcha turlarini o'rganuvchi soha onomastika sohasi hisoblanadi. Onomastika nomshunoslik sanalib, atoqli otlar nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq bir necha turlarga bo'linadi: 1) shaxs nomlari — antroponimika; 2) hayvonlarga qo'yilgan (shartli) atoqli nomlar — zoonimika; 3) joy nomlari — toponimika; 4) suv havzalari nomlari — gidronimika; 5) turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlar nomlari — teonimika; 6) fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlarning nomlari — kosmonimika; 7) osmon jismlarining nomlari — astronimika.

Onomasiologik planning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, obyektiv olamdagi makro va mikroolamlarning tilda qanday ifodasini topishga e'tibor qaratiladi. Buning natijasida har qaysi tilning o'ziga xos ifoda imkoniyatlari ochiladi.

Onomastika, ya'ni nomshunoslik, o'z ichida o'zining turli funksional-semantik ma'nolari bilan bog'liq holda turli guruhlariga bo'linadi. Gulxaniy qalamiga mansub "Zarbulmasal" asarining so'z boyligini tashkil etgan leksemalar ham onomastikaning aynan mana shunday semantik ma'no turlariga mos ravishda quyidagicha tasnif qilinadi:

I. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar — antroponimlar. Antroponimika (yunoncha antropos — odam, onuma — nom) shaxs nomlari bo'lib, onomastikaning bo'limi hisoblanadi. Odamlar ismini, ularning tarqalganligi, kelib chiqishi, jamiyatda amalda qo'llanishini va antroponimik tizimlar tuzilishi hamda rivojlanishini o'rganadi. Antroponimlar tilning lug'at tarkibida o'z o'rniga ega. Jumladan, atoqli otlar tizimiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida turli mayda guruhlariga bo'linadi. Bular quyidagilar: 1) ismlar; 2) familiyalar; 3) ota ismlari (shariflar); 4) taxalluslar; 5) laqablar.

Turkiy tillarda shaxs otlarini o'rganish XIX asr oxiri — XX asr boshlarida amalga oshirila boshlangan deb ko'rsatilsa-da, XI asrlardayoq shaxs otlari izohiga e'tibor qaratilganini ta'kidlash joiz. Masalan, "Devoni lug'otit turk"da bir qator shaxs otlari izohi keltirilgan. Antroponimikadagi dastlabki tadqiqotlar tarixiy-etnografik xarakterda yuzaga kelgan [6, 65]. "Zarbulmasal" asarida keltirilgan antroponimlar: Abdulkarim (11), Kulonkir (11), Dehlaviy (15), Iso (16), Abdurahmon (17), Kuykunak (19), Gunashbonu (22), Xo'ja Hofiz Sheroziy (23), Muhammad Sodiqli (24), Jalil (24), Zokirboy (24), Tahmatan (24), Said Azimxon (25), Xolboqi (27), Yodgor (28), Muhammadquli Bahodir (28), Xo'ja Ahmad Yassaviy (28), Nuh (28), Ibrohim (28), Namrud (28), Ali (38), Muhammad Amin Xo'ja (38), Said Umarxon (39), Navoiy (41), Sulaymon (42), Amir Umarxon (42), Bobojon (42), Mu'tamir (43), Ayniya (43), Rayyo (43), mulla Asqar (45), Abdurahim (46). Ushbu antroponimlar o'zining leksik-semantik xususiyatiga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi: 1) tarixiy nomlar: Iso (16), Nuh (28), Ibrohim (28), hazrati Sulaymon kabi payg'ambar nomlari; Ali (38) — Muhammad payg'ambarning kuyovi; Xo'ja Ahmad Yassaviy (28), Xo'ja Hofiz Sheroziy (23), Navoiy (41) kabi buyuk mutafakkirlar; Namrud (Bobil mamlakati podshosi), Said Umarxon (39), Amir Umarxon (Qo'qon xonligi hukmdorlari) (42), Mu'tamir (43) singari podshoh nomlari; 2) afsonaviy nomlar: Tahmatan (24) (Rustamning laqabi); 3) badiiy to'qima nomlar: Kulonkir (24), Kuykunak (19), Farhod, Shirin (15) [5, 3–55]. Antroponimlar genetik jihatdan quyidagicha guruhlanadi: turkiy apellyativlar asosidagi antroponimlar; forschatojikcha apellyativlar asosidagi antroponimlar; arabcha apellyativlar asosidagi antroponimlar; qadimiy yahudiycha apellyativlar asosidagi antroponimlar. Antroponimlar qaysi til materiali ekanligiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: a) arabcha: Abdulkarim, Abdurahmon, Abdurahim, Iborim, Ali, Muhammad Amin Xo'ja, Sulaymon, Said, Mu'tamir, Ayniya, Ahmad, Amir (O'TEL, II, 33), Sodiqli (O'TEL, II, 390); b) yahudiycha: Iso, Nuh; d) hindcha: Dehlaviy; e) forschatojikcha: Yassaviy, Sheroziy; f) turkiycha: Bobojon (O'TEL, I, 55).

Rus va jahon tilshunosligida onomastika nazariyasining shakllanishida A.V. Superanskaya, V.A. Nikonov, N.V. Podolskaya kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. Ular atoqli otlarni umumiy leksik tizimning alohida, o'ziga xos qonuniyatlarga ega qismi sifatida o'rgangan holda, onomastik birlikning apellyativ (turdosh) so'zdan farqli semantik-funksional xususiyatlarini asoslab berganlar. Xususan, badiiy matndagi atoqli otlar, ya'ni "poetik onomastika" yoki "poetonimika", muallifning individual uslubi, obraz yaratish mahorati va ijodiy niyatini ochib beruvchi maxsus tadqiqot obyekti sifatida ajratib ko'rsatiladi. Badiiy asardagi antroponimlar oddiy nominativ vazifadan tashqari, qahramon xarakterini, ijtimoiy mavqeyini, ba'zan esa muallifning unga munosabatini ham ifodalaydi [2, 608].

O'zbek tilshunosligida onomastika, xususan, antroponimika sohasining rivojlanishida E. Begmatov, S. Qorayev, Z. Do'simov, T. Nafasov, N. Ulug'ov kabi olimlarning xizmati katta bo'lgan. E. Begmatovning tadqiqotlarida o'zbek antroponimlari kelib chiqishi, tarkibiy tuzilishi va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti sistemali tarzda yoritilgan, shuningdek, o'zbek ismlarining izohli lug'atlari yaratilgan [1, 264]. Biroq mumtoz adabiyot namunalari, xususan, Gulxaniy kabi hajvchi shoirlar asarlaridagi onomastik qatlam bu tadqiqotlarda, asosan, chetda qolgan, bu esa mazkur mavzuning ilmiy dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Badiiy matnda antroponimlarning bajaradigan vazifalarini umumlashtirib, quyidagi asosiy funksiyalarni ajratish mumkin: 1) nominativ funksiya — qahramonni boshqalardan farqlash, uni matnda ajratib ko'rsatish; 2) xarakterologik funksiya — ism orqali qahramon xarakteri, fe'l-atvori, ijtimoiy mavqeyi haqida dastlabki tasavvur hosil qilish; 3) uslubiy-ekspressiv funksiya — ismning tovush tarkibi, ma'nosi orqali kulgi, kesatqi yoki hurmat kabi emotsional-baholovchi

ma'noni ifodalash; 4) madaniy-tarixiy funktsiya — davr, muhit, diniy-ma'rifiy qarashlarni aks ettirish. "Zarbulmasal" asaridagi antroponimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, unda ayniqsa xarakterologik va madaniy-tarixiy funktsiyalar yetakchilik qiladi: tarixiy-diniy nomlarning ustunligi asarning pandnomaviy-ta'limiy yo'nalishini kuchaytirsa, badiiy-to'qima nomlar esa muallifning individual uslubini ifodalaydi.

2. Asardagi zoonimik va boshqa onomastik qatlamlar

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'zining janr xususiyatiga ko'ra "Yapaloqqush hikoyasi" nomi bilan ham yuritiladi, chunki asar qahramonlarining katta qismi qushlar obrazida berilgan. Bu holat asarda antroponimlar bilan bir qatorda zoonimik (aniqrog'i, ornitonimik) qatlamning ham mavjudligini ko'rsatadi: qushlarga berilgan shartli nomlar orqali muallif turli ijtimoiy toifalar — amaldorlar, ruhoniylar, oddiy fuqarolar — xarakterini ramziy tarzda ifodalaydi. Zoonimlarning bunday ishlatilishi "Kalila va Dimna" an'anasidagi hayvon obrazlari orqali ijtimoiy-axloqiy fikr bildirish uslubiga ham mos keladi. Zoonimik qatlamni to'liq inventarizatsiya qilish va uni antroponimlar bilan qiyosiy tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Antroponimlar bilan bir qatorda asarda diniy-afsonaviy nomlar (Nuh, Ibrohim, Namrud kabi payg'ambar va afsonaviy shaxs nomlari) teonimika va afsonaviy onomastika chegarasida turadi. Bunday nomlarning matnda faol qo'llanishi Gulxaniy ijodining diniy-ma'rifiy manbalar, xususan, Qur'oniy qissalar va Sharq tasavvufiy adabiyoti bilan uzviy bog'liqligidan dalolat beradi.

Muhokama.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Zarbulmasal" asaridagi antroponimlarning katta qismi (tarixiy-diniy nomlar guruhi) real tarixiy shaxslar va Islom dini bilan bog'liq payg'ambarlar nomlaridan iborat. Bu esa Gulxaniyning o'z davri ma'rifiy-diniy bilim tizimidan chuqur xabardor bo'lganini, shuningdek, asarning didaktik-pandnomaviy yo'nalishini kuchaytirish uchun bunday nomlardan ong'li ravishda foydalanganini ko'rsatadi.

Antroponimlarning genetik tarkibida arabcha va forscha-tojikcha qatlamning ustunlik qilishi XVIII–XIX asr Qo'qon xonligi adabiy muhitida arab-fors tillari ta'sirining kuchli bo'lganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Bobojon kabi sof turkiy antroponimning mavjudligi asarning xalq tiliga, jonli so'zlashuv nutqiga yaqinligidan dalolat beradi. Bu esa Gulxaniy ijodining xalqchilligini ta'minlovchi omillardan biridir.

Kulonkir, Kuykunak kabi badiiy-to'qima nomlar esa muallifning individual ijodiy uslubini, obrazlarga xos ismlar yaratish mahoratini namoyon etadi. Tahmatan kabi afsonaviy laqabning qo'llanilishi asarning fors-tojik adabiyoti, xususan, "Shohnoma" an'analari bilan intertekstual aloqasini ko'rsatadi. Demak, asardagi onomastik birliklar shunchaki nominativ vosita bo'lib qolmay, balki muallifning badiiy niyatini, ijtimoiy-tanqidiy pozitsiyasini va adabiy-madaniy aloqalarini ochib beruvchi uslubiy vositaga aylanadi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, "Zarbulmasal"dagi antroponimlar orasida real tarixiy shaxslar (Amir Umarxon, Said Umarxon — Qo'qon xonligi hukmdorlari, Alisher Navoiy) bilan bir qatorda diniy-afsonaviy va badiiy-to'qima nomlarning yonma-yon qo'llanilishi asarning janr xususiyati — tarixiy voqelik bilan badiiy to'qimani uyg'unlashtirgan hajviy-didaktik nasr namunasi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu esa Gulxaniy ijodini o'rganishda nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik, xususan, onomastika nuqtayi nazaridan ham kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Antroponimlarning matndagi joylashuv o'rni ham e'tiborga molik: ko'pchilik tarixiy-diniy nomlar pand-nasihat, hikmatli fikrlarni asoslash uchun misol tariqasida keltiriladi. Bu esa an'anaviy Sharq adabiyotiga xos "pandnoma" uslubining "Zarbulmasal"da ham davom etganini ko'rsatadi. Zamonaviy va afsonaviy nomlarning bunday funksional taqsimoti asar tuzilishining ichki mantiqini ham ochib beradi.

Natijalar.

Tadqiqot davomida "Zarbulmasal" asari matnidani jami 32 ta antroponim aniqlandi va ro'yxatga olindi. Ularning leksik-semantik tasnifi natijasida uchta asosiy guruh ajratildi: 1) tarixiy-diniy nomlar (Iso, Nuh, Ibrohim, Sulaymon, Ali, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Xo'ja Hofiz Sheroziy, Navoiy, Namrud, Said Umarxon, Amir Umarxon, Mu'tamir kabilar) — bu guruh antroponimlarning ko'pchiligini tashkil etadi; 2) afsonaviy nomlar (Tahmatan); 3) badiiy-to'qima nomlar (Kulonkir, Kuykunak).

Genetik-etimologik tahlil natijasida antroponimlarning aksariyati arabcha (Abdulkarim, Abdurahmon, Abdurahim, Ali, Sulaymon, Said va boshqalar) hamda fors-tojikcha (Yassaviy, Sheroziy, Dehlaviy) qatlamga mansubligi, yahudiycha (Iso, Nuh) va turkiycha (Bobojon) qatlamning esa nisbatan kam sonli ekanligi aniqlandi. Bu nisbat asarning yaratilgan davridagi til va madaniy muhitning ko'p qatlamli xarakterini aniq aks ettiradi.

Shuningdek, asarda antroponimlar bilan bir qatorda ornitonimik-zoonimik qatlam ham mavjudligi, biroq uning to'liq inventarizatsiyasi alohida, kengroq tadqiqot doirasida amalga oshirilishi lozimligi natijalar asosida xulosa qilindi.

Statistik jihatdan olingan natijalarni umumlashtirsak, aniqlangan 32 antroponimning taxminan yarmidan ko'pi (17 taga yaqini) tarixiy-diniy nomlar guruhiga, qolgan qismi esa afsonaviy va badiiy-to'qima nomlar hamda ish yuritish nomlari (familiya, laqab tipidagi Zokirboy, Xolboqi kabilar)ga to'g'ri keladi. Genetik jihatdan arabcha va forscha-tojikcha qatlam antroponimlarning aksariyat qismini (taxminan 70 foizdan ortig'ini) tashkil etadi, bu esa davr yozma adabiy tilining arab-fors elementlariga boyligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Xulosa.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari leksikasi boy va xilma-xil onomastik qatlamga ega bo'lib, undagi antroponimlar tizimi asarning badiiy-g'oyaviy mazmunini, muallifning diniy-ma'rifiy dunyoqarashini hamda davr adabiy an'analari bilan aloqasini ochib berishga xizmat qiladi. Antroponimlarning genetik-semantik tasnifi o'zbek mumtoz adabiyoti onomastikasini o'rganishda muhim empirik material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati o'zbek adabiy onomastikasi, xususan, mumtoz asarlar antroponimikasi bo'yicha bilimlarni boyitishdan iborat bo'lsa, amaliy ahamiyati uning natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida "Onomastika", "Tarixiy leksikologiya", "Mumtoz adabiyot tili" kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, asar bo'yicha izohli lug'atlar tuzishda foydalanish mumkinligidadir. Kelgusi tadqiqotlarda asardagi zoonimik-ornitonimik qatlamni to'liq tahlil qilish, shuningdek, Gulxaniy va boshqa zarbulmasal janri vakillari (masalan, Rojiiy) asarlaridagi onomastik birliklarni qiyosiy o'rganish istiqbolli yo'nalish bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn onomastikasini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida yotgan kompleks muammo hisoblanadi. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari misolida ko'rsatilgan tahlil usuli o'zbek mumtoz adabiyotining boshqa namunalarini, xususan, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi XIX asr oxiri ijodkorlari asarlarini onomastik jihatdan tadqiq etishda ham metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bois mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning davom ettirilishi o'zbek adabiy tili tarixini yanada chuqurroq va har tomonlama yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Begmatov E. A. *O'zbek tili antroponimikasi*. – Toshkent: Fan, 2013. – 264 b.
2. Begmatov E. A. *O'zbek ismlari ma'nosi: Izohli lug'at*. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 608 b.
3. Begmatov E., Uluqov N. *O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati*. – Namangan, 2006.
4. Ishoqov F. *Gulxaniy "Zarbulmasal"ining izohli lug'ati*. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 1998.
5. Gulxaniy. *Zarbulmasal*. – Toshkent: Fan, 1972. – B. 3–55.
6. Xolmanova Z. *"Boburnoma" leksikasi*. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 65.